ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



№7(3)
2026

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 438 sahifa,
25-iyul, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:
Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI
Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:
Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:
Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician
Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician
Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor
Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor
Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)
Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)
Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)
Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)
Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)
Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor
Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)
Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor
Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor
Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service
Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor
Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)
Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics
Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region
Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences
Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA CODERЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA

Imkoniyati cheklangan talabalarda jismoniy sifatlarni sport mashg'ulotlari yordamida rivojlantirishning afzalliklari 8
Davronov Rustam Ilxomovich

Использование фонетических игр и современных технологий в обучении русскому языку в общеобразовательных школах Узбекистана 15
Абумалик Муталлиевич Дедаханов

Maktablarda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni isloh qilish muammo va yechimlar 20
Qudratov O'ktam G'ofurovich

The Role of Motivation in Learning English 25
Kamoldinova Mushtariybonu Azizbek qizi

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim muhitini boshqarishning ijtimoiy-pedagogik asoslari 30
Axrarova Gulrux Gulamkadirovna

Bo'lajak logopedlarda metakognitiv-diagnostik kompetentlikni rivojlantirishning xorijiy va milliy tajribasi 37
Suvankulova Shaxnoza Karimkulovna

Ingliz tili darslarida individual va pragmatik yondashuvni amalga oshirish texnologiyalari 43
Yuldasheva Dilnoza Bobojonovna

Talabalarning texnologik fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishning tarkibiy komponentlari 48
Kushbakova Barno Batirkulovna

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni joriy etishda ijtimoiy hamkorlik va jamoatchilik fikrini shakllantirish 54
Arslanova Madinaxon Mansurovna

O'quvchi-yoshlarga axloqiy ta'lim-tarbiya berishda qoraqalpoq dostonlarining ahamiyati 59
Esemuratova Turganbike Aytmuratovna

Talaba markazli yondashuv asosida ingliz tilini o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanish samaradorligi 63
Narzullayeva Firuza Olimovna

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 5-6 yoshdagi bolalarni kasbga yo'naltirish bo'yicha metodik xizmatni takomillashtirish 67
Rizayeva Munisxon Maxkamovna

Generativ sun'iy intellekt vositalarining ta'lim jarayonidagi pedagogik imkoniyatlari 71
Shodiyev Azizbek Olim o'g'li

Shaxs kamolotida psixologik salomatlikning ahamiyati va asosiy ko'rsatkichlari 76
Xolova Yulduz Erkinovna

Zamonaviy ta'lim paradigmasida fizika fanini o'qitish: virtual va to'ldirilgan borliq hamda sun'iy intellekt texnologiyalarining integrativ metodikasi 83
Zuhriddinov Farrux Faxriddin o'g'li

Event ta'lim texnologiyasi vositasida talabalarning o'qish samaradorligini oshirish 87
Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual faolligini rivojlantirishga ta'sir etuvchi individual-psixologik omillar 90
Djurakulova Munira Suyunovna

Ingliz tilini o'qitishda interaktiv metodlarni takomillashtirish modeli hamda ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri 97
Narzullayeva Firuza Olimovna

Народное творчество как великое сокровище интеллектуального воспитания 102
Матмуратова Гулистан Камалатдиновна

Raqamli intellekt: o'quvchilarda mediasavodxonlik kompetensiyasini rivojlantirish – davr talabi 108
Nishonova Muattarxon Alisherovna, Toirova Nafisa Muzaffar qizi

Umumta'lim fanlaridan dars samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirishning ilmiy-metodik asoslari 111
Toshmamatova Munisa Toshmamatovna

Xorazm viloyatida ekoturizmni rivojlantirish istiqbollari (tumanlar kesimida) 115
Xo'jyozova Dildora Shonazar qizi, Dusanova Sharofat Baltaboyevna

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ yondashuv asosida innovatsion tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari 121
Kadirova Dildora Najadbekovna

The Integration of Artificial Intelligence in English Language Teaching: Opportunities and Challenges 125
Moxinur Yusupova

Pragmatik-tizimli portfolio (PTP) texnologiyasi: talabalar reflektiv tafakkurini faoliyat dalillari asosida rivojlantirish 131
Abdullayeva Ziroatxon Qurbonovna

Sog'lig'ida cheklovlari mavjud bolalar jismoniy va psixologik holatini takomillashtirishda yengil atletika mashg'ulotlarining ahamiyati 136
Hikmatova Nigoraxon Hasanboy qizi

Art badiiy ta'limning rivojida klaster yondashuvi 140
A. S. Umarov

Simulyatsion o'yin muhitida maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-hissiy kompetentligini shakllantirish imkoniyatlari 143
Turg'unova Mohinaxon Akmaljon qizi

O'smirlarda deviant xulq-atvor shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari (empirik tadqiqot) 150
Toshpolatova Robiya Akmal qizi

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida milliy mafkurani shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish 154
Ahmadov Olimjon Shodmonovich, Esanova Mehrigul Qurbanazarovna

Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi dizartriyaning yengil shakliga ega 6-7 yoshli bolalardagi nutq kamchiliklarini o'yin texnologiyalari asosida korreksiyalashning samaradorligi 159
Baxadirova Zulfizar Azimbayevna

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ va ijtimoiy-hissiy kompetensiyalarni baholashning diagnostik vositalarini tanlash va qo'llash metodikasi 163
Abdullayeva Munojot Muxtorovna

Talabalarni o'quvchilarning tibbiy tashxisiga mos pedagogik yondashuvlardan foydalanishga o'rgatish usullari 169
Yuldashova Iroda Dilshodovna

Uzoq muddat davolanishga muhtoj bolalar uchun ta'lim muassasalarining tashkil etilishi 174
Yusupjanova Shaxnoz Mirzatillayevna

O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim tizimida raqamli STEAM muhitini joriy etish: o'qituvchilar tayyorgarligi va infratuzilma cheklovlari tahlili 178
Abdullayev Doston Sheraliyevich

Bo'lajak maxsus pedagoglarning faol fuqarolik kompetensiyasining tarkibiy-mezonli modeli va rivojlanganlik darajalari 183
Sultonov Muxammadali Fayzulla o'g'li

Совершенствование механизмов интеграции стратегического и функционального менеджмента на основе анализа деятельности государственных и международных филиалов вузов 189
А. М. Маргупов

Решение педагогических проблем, возникающих при обучении письму леворуких учащихся начальных классов 194
Эгамбердиева Юлдуз

Biologiya ta'limida generativ sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari va metodik asoslari 198
Parmonova Marjona O'ktam qizi, Baybayeva Muxayyo Xudoyberganovna

Bolalarda emotsional intellektni rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari 204
Sherdanova Farangiz Raxmat qizi

Zamonaviy televideniyeda suxandon nutqining tabiiyligi va auditoriya bilan ishonchli muloqot 208
Maxanbetova Dilnoza

10-sinf kimyo darslarida "Spirtlar" bo'limini o'qitishda o'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish metodikasi 211
Nazarova Yulduz Atamuratovna

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirishda ijodiy o‘yinlardan foydalanish 215
Yuldasheva Shoxida Botirovna, Kurbanbayeva Moldir Abatbay qiz

Milliy taraqqiyot g‘oyalarida jadid ayollarining o‘rni 220
Ergashova Mehriniso Husniddin qizi

Mahalla – oila – ta’lim muassasasi hamkorligi 223
Muxtarov Utkirjon Mutalibjanovich, Abdusamatov Ozodbek

Oliy ta’lim muassasalarida “Mikrobiologiya” modulini raqamli texnologiyalar asosida o‘qitishning didaktik imkoniyatlari 227
Reymova Erkinay Atabayevna

Raqamli ta’lim transformatsiyasi sharoitida professor-o‘qituvchilarning kasbiy motivatsiyasini rivojlantirishning pedagogik omillari 232
Abdusamiyev Dilmurod Abdug‘ani o‘g‘li

Translanguaging as a Pedagogical Resource in Uzbek EFL Classrooms: Insights from a Classroom Observation 238
Aziza Sobirova

Katta maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy tasavvurini rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari 243
Otayeva Salamat Sabirovna

System-Structure Research of Artificial Intelligence Terms 250
Odilova Fotima

Oliy ta’lim tashkilotlarida qo‘llaniladigan zamonaviy ta’lim metodlarining mazmuni va o‘ziga xos xususiyatlari 259
Berdiyeva Nilufar Axatovna

Zamonaviy smart texnologiyalar asosida talabalarning texnik fikrlash kompetentligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari 267
Eshonqulova Madina Nosir qizi

Модель развития проектно-конструкторской компетентности студентов с использованием автоматизированных цифровых программ 272
Камолова Махлиё Акбар кизи

Boshlang‘ich sinf tabiiy fanlar darslarida sun’iy intellekt vositalari asosida tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish metodikasi 277
Savriddinova Mexrinoz Ulug‘bekovna

Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning tug‘ruqdan keyingi davr ayollarida onalikdan mamnunlik bilan bog‘liqligi 282
Kalandarova Madina Baxadirovna

Bo‘lajak o‘qituvchilarda lingvistik kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalari 285
Kamolova Mashhura Otabek qizi

Terminology and Lexical Problems in Modern Linguistics and AI 289
Odilova Fotima

Adabiy ta’limda badiiy matnlar orqali o‘qish kompetensiyalarini takomillashtirish metodikasi 294
Abdujabborova Nilufar Rustamjon qizi

Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish, uning bosqichlari va diagnostika metodikalari 298
Boltayeva Go‘zal Komilovna

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy muloqotini rivojlantirishda matn bilan ishlashning assotsiativ tafakkurga asoslangan metodikasi 302
Hamroyeva Xolida Rizoqul qizi

Bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarining kasbiy-metodik kompetentligini baholashning kvalimetrik asoslari 307
Niyozova Shahlo Abdusaitovna

Oilaviy holat, ma’lumot darajasi va pedagogik stajning ayollar emotsional barqarorligiga ta’sir etuvchi psixologik xususiyatlari 313
Pulatova Dilfuza Baxramovna

“Kommunikativ kompetensiya”ning tarkibiy komponentlari 318
Saidova Sumbuloy Otabayevna

Kasbiy kompetensiyani shakllantirishda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish 321
Xamidova Zaynura Ramazonovna

Wiki texnologiyasi asosida ingliz tili darslarini tashkil etish bosqichlari 324
Yunusova Dildora Hamrakulovna

Nogiron farzandli turli yoshdagi onalarning psixologik farovonligi bilan depressiya, xavotir va stress o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik 328
Kasimova Xulkar Atabayevna

Talaba-qizlarda sog'lom turmush tarzi qadriyatlarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari 332
Esanova Gulchehra Boybo'ri qizi

Особенности иммунного статуса при аллергодерматозах у жителей ташкентской области 338
Саипова Н. С., Абдуллаева Ф. Б.

Aqliy xaritalar va mnemotexnikani birlashtirib, bolalarning fikrlashini o'stirish 343
Egamberdiyeva Xuriyat Egamberdiyevna, Kaxxarova Ozoda Abdimo'minovna

Математическое развитие по STEAM технологиям 349
Садикова Д. Х.

Adaptive Trust-Aware Multi-Criteria Decision Method for Artificial Intelligence Systems: A Conceptual Framework and Mathematical Model 353
Yuldashev Nodirbek Abdumannob o'g'li

Kontrsuggestiv, tezaurus va interaksion omillarning bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida pedagogik liderlik kompetensiyalari rivojlanishiga ta'siri 360
Jumanov Lochinbek Habibulla o'g'li

Yapon olima ayollarining kompetensiyaviy yondashuvini oliy ta'limda qo'llash istiqbollari 365
Jumanazarova Gullola Yoqubjanovna

Ingliz tilini o'rganishda sun'iy intellektning o'rni 369
Dilnura Rustamovna Xamrayeva

Neuromuscular Dentistry's Place in Dental Practice 375
Turayev Alimjan

Utilisation of Mechanotherapy in Dental and Maxillofacial Surgical Practices (Literature Analysis) 380
Marufova Farangiz Gayratovna

Axbrot istemoli madaniyatini shakllantirishning psixologik omillari (talabalar misolida) 387
Ramazonov Jahongir Djalolovich

Mikromoliyaviy xizmatlarni rivojlantirishning huquqiy asoslarini takomillashtirishda fuqarolik huquqiy munosabatlar 393
Madumarov Talantbek Tolibjonovich, Qalandarova Mubinabonu Fayziddin qizi

Pedagogik ta'limda gamifikatsiya texnologiyalaridan foydalanish 398
Gulmonova Guli Anvar qizi

Аксиологический потенциал поэзии Серебряного века в языковом и нравственном развитии учащихся: методический аспект 403
Жабборова Гулчехра Жобировна

Informatika va axborot texnologiyalarini innovatsion texnologiyalar yordamida o'qitish 407
Po'lotova Sevinchoy Arslon qizi

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida kasbiy-pedagogik qadriyatlarning psixologik tuzilishi va mazmuni ... 412
Qo'shmuratov Bekzod Abduraimovich

Gimnastika mashg'ulotlarida estetik tarbiyaning ijrochilik mahoratiga ta'siri: tizimli adabiyot tahlili 418
Sharapov Atabek Gayrat uli

Masofaviy ta'limning axborot-ta'lim muhitini didaktik loyihalash 421
Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi

Raqamli texnologiyalar sharoitida Shukur Xolmirzayev asarlarini o'rgatish metodikasi 428
Xusanova Shoxsanam Nematovna

Nemis tili talabalarining kasbiy yo'naltirilgan o'qish ko'nikmalarini differensial topshiriqlar orqali rivojlantirish ... 433
Nafisaxon Nuriddinova Tolib qizi

NEMIS TILI TALABALARINING KASBIY YO'NALTIRILGAN O'QISH KO'NIKMALARINI DIFFERENSIAL TOPSHIRIQLAR ORQALI RIVOJLANTIRISH



Nafisaxon Nuriddinova Tolib qizi
O'zbekiston Jahon tillari universiteti
"Nemis tili amaliy fanlar" kafedrasi stajyor o'qituvchisi
ORCID: 0009-0004-0190-7381

Annotatsiya: Maqolada nemis tili talabalarining kasbiy yo'naltirilgan o'qish ko'nikmalarini differensial topshiriqlar orqali rivojlantirish masalasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda chet tilini o'qitishda differensial yondashuvga bag'ishlangan ilmiy qarashlar qiyosiy o'rganiladi. Talabalarning tayyorgarlik darajasiga mos topshiriqlarni tanlashning metodik ahamiyati yoritiladi. Kasbiy yo'naltirilgan matnlarni o'qitishda diagnostika va turli murakkablikdagi topshiriqlardan foydalanish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Mavjud empirik natijalar differensial yondashuvning o'qish ko'nikmalari va o'zlashtirish ko'rsatkichlariga ta'siri nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Shuningdek, mazkur yondashuvning imkoniyatlari va amaliy qiyinchiliklari aniqlashtiriladi. Maqolaning o'ziga xosligi mavjud tadqiqotlarni nemis tili talabalarining kasbiy yo'naltirilgan o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish nuqtayi nazaridan tizimlashtirishdan iborat.

Kalit so'zlar: differensial yondashuv, differensial topshiriqlar, nemis tili, kasbiy yo'naltirilgan o'qish, o'qish ko'nikmasi, tayyorgarlik darajasi, diagnostika, individual yondashuv.

Abstract: The article examines the development of professionally oriented reading skills of German language students through differentiated tasks. Scientific approaches to differentiated foreign language teaching are comparatively analysed. Particular attention is paid to selecting tasks according to students' levels of preparation. The role of initial diagnostics and tasks of different levels of complexity in professionally oriented reading instruction is discussed. Available empirical findings on the influence of differentiated instruction on reading skills and academic achievement are analysed. The methodological possibilities and practical difficulties of the approach are also identified. The distinctive focus of the article is the systematization of existing studies from the perspective of professionally oriented reading among German language students.

Key words: differentiated instruction, differentiated tasks, German language, professionally oriented reading, reading skills, proficiency level, diagnostics.

Аннотация: В статье рассматривается проблема развития навыков профессионально-ориентированного чтения у студентов, изучающих немецкий язык, посредством дифференцированных заданий. Проводится сравнительный анализ научных подходов к дифференцированному обучению иностранному языку. Рассматривается методическое значение заданий, соответствующих уровню подготовки студентов. Особое внимание уделяется диагностике исходного уровня и использованию заданий различной степени сложности при обучении профессионально-ориентированному чтению. Анализируются имеющиеся эмпирические данные о влиянии дифференцированного подхода на навыки чтения и учебные результаты. Определяются возможности и практические трудности применения данного подхода. Особенность статьи состоит в систематизации существующих исследований с позиции развития профессионально-ориентированного чтения студентов, изучающих немецкий язык.

Ключевые слова: дифференцированный подход, дифференцированные задания, немецкий язык, профессионально-ориентированное чтение, навыки чтения, уровень подготовки, диагностика.

KIRISH

Zamonaviy chet tili ta'limida talabaning o'rganilayotgan tildagi matnni o'qishi faqat uning mazmunini yuzaki anglash bilan chegaralanmaydi. Ayniqsa, oliy ta'lim sharoitida talaba mutaxassislikka oid axborotni tushunishi, matndan zarur ma'lumotlarni ajratib olishi va olingan axborotdan keyingi o'quv faoliyatida foydalanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli kasbiy yo'naltirilgan o'qish chet tilini o'qitishning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Biroq bir akademik guruhdagi talabalarning til tayyorgarligi, matnni tushunish darajasi va o'zlashtirish imkoniyatlari bir xil emas. Mazkur holat barcha talabaga bir xil murakkablikdagi o'quv materiallari va topshiriqlarni

taqdim etish samaradorligi masalasini yuzaga chiqaradi. Differensial yondashuv aynan talabalarning individual imkoniyatlari va tayyorgarlik darajasini hisobga olib, o'quv topshiriqlarini moslashtirish imkoniyatini beradi.

M. Yu. Akimova va L. V. Gudkova differensial yondashuv o'quvchilarning individual sur'ati, idrok qilish xususiyatlari va psixologik farqlarini hisobga olish imkonini berishini ta'kidlaydilar [1].

Nikonova va Yakhyaeva esa mazkur yondashuvni nofilologik oliy ta'lim muassasasi talabalariga kasbiy yo'naltirilgan o'qishni o'rgatish jarayonida eksperimental tarzda qo'llaganlar [2].

Yu. V. Valtseva differensial topshiriqlardan chet tili darsining turli bosqichlarida foydalanish masalasini ko'rib chiqadi [3]. Shu nuqtayi nazardan, kasbiy yo'naltirilgan o'qishni o'rgatishda talabalarning dastlabki tayyorgarlik darajasini aniqlash va topshiriqlarning murakkabligini unga moslashtirish muhim metodik masala sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot obyekti – chet tilini o'qitish jarayonida talabalarning kasbiy yo'naltirilgan o'qish faoliyati.

Tadqiqot predmeti – kasbiy yo'naltirilgan o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishda differensial topshiriqlardan foydalanishning metodik imkoniyatlari.

Tadqiqotning maqsadi – chet tilini o'qitishda kasbiy yo'naltirilgan o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun differensial topshiriqlardan foydalanishga oid ilmiy qarashlar va mavjud empirik natijalarni tahlil qilish hamda ularni nemis tili ta'limi nuqtayi nazaridan tizimlashtirish.

Maqolaning vazifalari differensial yondashuvga oid nazariy qarashlarni o'rganish, kasbiy yo'naltirilgan o'qishda topshiriqlarni differensiallashtirish mezonlarini aniqlash, mavjud empirik natijalarni qiyosiy tahlil qilish hamda ushbu yondashuvning nemis tili ta'limida foydalanish mumkin bo'lgan metodik jihatlarini belgilashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Chet tilini o'qitishda differensial yondashuv masalasi turli tadqiqotchilar tomonidan shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, individualizatsiya va o'quvchilar tayyorgarligidagi farqlarni hisobga olish nuqtayi nazaridan o'rganilgan. M. Yu. Akimova va L. V. Gudkova "Дифференцированный подход в обучении иностранному языку" nomli tadqiqotlarida differensial yondashuvni shaxsga yo'naltirilgan ta'lim bilan bog'laydilar [1].

Tadqiqotchilar V. Yu. Astafurova, N. V. Zhilenko, E. E. Sokolova hamda N. D. Galskova qarashlariga tayanib, o'quvchini differensiallashtirishda uning individual va psixologik xususiyatlarini hisobga olishga e'tibor qaratadilar. Maqolada o'quvchilarning temperament va idrok qilish turiga muvofiq turli o'quv faoliyatlarini tashkil etish tavsiya qilinadi. Jumladan, vizual va audial idrok xususiyatlari, introvertlik va ekstravertlik kabi omillar hisobga olinishi qayd etiladi. Ular differensial yondashuv o'quvchining individual o'zlashtirish sur'atini hisobga olish, motivatsiya va o'zlashtirishni yaxshilash imkoniyatini berishini ta'kidlaydilar [1]. Shu bilan birga, o'qituvchining vaqt va resurs sarfi mazkur yondashuvning amaliy qiyinchiliklaridan biri sifatida ko'rsatilgan.

Kasbiy yo'naltirilgan o'qish masalasi E. N. Nikonova va K. M. Yakhyaevaning 2020-yilda chop etilgan "Дифференцированный подход при обучении студентов профессионально-ориентированному чтению в рамках дисциплины "Иностранный язык"" nomli tadqiqotida bevosita o'rganilgan [2].

Tadqiqotning nazariy asosini T. S. Serova, I. A. Zimnyaya va S. K. Folomkinaning kasbiy yo'naltirilgan chet tili va o'qishni o'rgatishga oid qarashlari hamda I. E. Unt va Zh. V. Likhachevaning tabaqalashtirilgan ta'lim nazariyasi tashkil etadi.

Nikonova va Yakhyaeva tadqiqotining muhim jihati uning empirik asosga ega ekanligidir. Tadqiqotda Buyuk Pyotr Sankt-Peterburg politexnika universitetining iqtisodiy yo'nalishidagi to'rtta guruhdan jami 57 nafar talaba ishtirok etgan. Avval 48 topshiriqdan iborat diagnostik test o'tkazilgan. Keyinchalik talabalar natijalariga ko'ra ikki guruhga ajratilgan: 31 nafar talaba birinchi variantdagi, 26 nafar talaba ikkinchi variantdagi mashqlar bilan ishlagan. Tajriba yakunida 55 topshiriqdan iborat nazorat testi o'tkazilgan [2].

Yu. V. Valtsevaning tadqiqoti esa differensial yondashuvni umumiy chet tili darsi doirasida ko'rib chiqadi [3]. Muallif differensial topshiriqlardan darsning so'rov, yangi mavzuni o'rganish, mustahkamlash va uy vazifasi bosqichlarida foydalanishni tavsiflaydi. Shuningdek, differensial baholash va o'quvchining topshiriq darajasini tanlash imkoniyati ta'lim motivatsiyasiga ijobiy ta'sir qilishi ta'kidlanadi.

Tahlil qilingan uch manba metodologik jihatdan bir xil emas. Akimova va Gudkova hamda Valtsevaning tadqiqotlari, asosan, nazariy-metodik tahlil va pedagogik tajribani umumlashtirishga asoslangan bo'lsa, Nikonova va Yakhyaeva tadqiqotida diagnostika, differensial mashqlar va yakuniy nazoratdan iborat uch bosqichli pedagogik eksperiment amalga oshirilgan.

Mazkur maqolaning mavjud tadqiqotlardan farqli jihati shundaki, yuqoridagi ilmiy natijalar nemis tili talabalarining kasbiy yo'naltirilgan o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish muammosi nuqtayi nazaridan tizimlashtiriladi. Bunda nemis tili talabalariga nisbatan eksperimental natija mavjud deb da'vo qilinmaydi; aksincha, mavjud ilmiy natijalarning mazkur yo'nalish uchun metodik ahamiyati tahlil qilinadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqola nazariy-tahliliy xarakterga ega. Tadqiqotda qiyosiy tahlil, mazmuniy tahlil, umumlashtirish va tizimlashtirish metodlaridan foydalanildi. Qiyosiy tahlil usuli yordamida uchta ilmiy manbaning tadqiqot maqsadi, nazariy asoslari, metodologiyasi, tanlanmasi hamda asosiy natijalari o‘zaro solishtirildi. Bu orqali differensial yondashuvning qaysi jihatlari turli tadqiqotlarda umumiy, qaysi jihatlari esa alohida yoritilgani aniqlashtirildi.

Mazmuniy tahlil orqali differensiallashtirish bilan bog‘liq asosiy tushunchalar, xususan, tayyorgarlik darajasi, topshiriq murakkabligi, individual xususiyatlar, kasbiy yo‘naltirilgan o‘qish va o‘zlashtirish natijalari ajratib olindi [4].

TAHLIL VA NATIJALAR

Adabiyotlar tahlili differensial yondashuvda dastlab talabaning tayyorgarlik holatini aniqlash muhim ekanligini ko‘rsatadi. Nikonova va Yakhyaeva tadqiqotida pedagogik eksperiment diagnostik testdan boshlanib, olingan natijalarga ko‘ra talabalar ikki xil murakkablikdagi topshiriqlar bilan ishlaganlar [2].

Tadqiqotda mustaqil o‘zgaruvchi sifatida differensial yondashuv va turli darajadagi topshiriqlar, bog‘liq o‘zgaruvchi sifatida esa talabalarning kasbiy matnlarni o‘qish va tushunish ko‘nikmalari hamda umumiy o‘zlashtirish darajasi belgilangan. Nikonova va Yakhyaeva tadqiqotining diagnostik hamda yakuniy natijalari quyidagi ko‘rsatkichlarni namoyon qilgan(1-jadval):

1-jadval: **Diagnostik test va yakuniy nazorat natijalarining qiyosiy ko‘rsatkichlari**

Ko‘rsatkich	Diagnostik test	Yakuniy nazorat	O‘zgarish
Ijobiy baholar ulushi	46 %	75 %	+29 foiz punkt
Salbiy baholar ulushi	14 %	4 %	–10 foiz punkt
Qoniqarli va salbiy natijalar jami	54 %	25 %	–29 foiz punkt

Manba: E. N. Nikonova va K. M. Yakhyaeva tadqiqoti asosida [2].

Ko‘rsatkichlar aynan ushbu tadqiqot ishtirokchilariga tegishli. Shuning uchun ularni bevosita nemis tili yo‘nalishi talabalariga ko‘chirish ilmiy jihatdan asosli bo‘lmaydi. Biroq natijalar tayyorgarlik darajasini dastlab diagnostika qilish va unga mos turli murakkablikdagi topshiriqlarni tanlashning metodik ahamiyatini ko‘rsatadi. Nikonova va Yakhyaeva tajribasida diagnostik testdan keyin pastroq natija ko‘rsatgan 31 nafar talaba birinchi variantdagi, yuqoriroq natija ko‘rsatgan 26 nafar talaba esa ikkinchi variantdagi mashqlar bilan ishlagan. Bu differensiallashtirishning asosini talabalarni tasodifiy ajratish emas, balki dastlabki diagnostika natijalari tashkil etganini ko‘rsatadi. Akimova va Gudkova qarashlari esa differensiallashtirishni faqat akademik natijalar bilan cheklab bo‘lmasligini ko‘rsatadi. Ularning tadqiqotida o‘quvchining individual o‘zlashtirish sur’ati va axborotni qabul qilish xususiyatlarini ham hisobga olish zarurligi ta’kidlangan [1]. Shuningdek, natijalarga ko‘ra, differensial yondashuv individual ehtiyojlarni hisobga olish, motivatsiyani kuchaytirish va kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish imkoniyatiga ega. Biroq uni tashkil etishda o‘qituvchining vaqt va resurs sarfi ortishi mumkin.

Kasbiy yo‘naltirilgan o‘qish nuqtayi nazaridan ushbu tadqiqotlarning o‘zaro bog‘liqligi quyidagicha namoyon bo‘ladi:

- Akimova va Gudkova differensiallashtirishning individual asoslarini yoritadi;
- Nikonova va Yakhyaeva uni kasbiy yo‘naltirilgan o‘qish jarayonida eksperimental tekshiradi.
- Valtseva esa differensial topshiriqlardan darsning turli bosqichlarida foydalanish imkoniyatlarini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, mavjud manbalarning maqsadli auditoriyalari farq qiladi. Akimova va Gudkova hamda Valtseva tadqiqotlari ko‘proq maktab ta’limiga, Nikonova va Yakhyaeva tadqiqoti esa nofilologik oliy ta’lim muassasasining iqtisodiy yo‘nalishi talabalariga qaratilgan. Demak, ushbu natijalar nemis tili yo‘nalishi talabalarida aynan kasbiy yo‘naltirilgan o‘qish ko‘nikmalarining rivojlanganini isbotlamaydi. Ular mazkur yo‘nalishda kelgusida empirik tadqiqot tashkil etish uchun nazariy-metodik asos sifatida xizmat qilishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlil qilingan ilmiy manbalar chet tilini o‘qitishda differensial yondashuv talabalarning individual imkoniyatlari va tayyorgarlik darajasini hisobga olish imkonini berishini ko‘rsatadi. Ayniqsa, Nikonova va Yakhyaeva tadqiqoti kasbiy yo‘naltirilgan o‘qishni o‘rgatishda diagnostika asosida turli murakkablikdagi topshiriqlardan foydalanishning empirik natijalarini taqdim etishi bilan ajralib turadi. Tadqiqotda 57 nafar talaba ishtirok etgan

va differensial topshiriqlar qo‘llanganidan so‘ng ijobiy baholar ulushi 46 foizdan 75 foizga ko‘tarilgan. Shu bilan birga, bu ko‘rsatkichlar iqtisodiy yo‘nalishdagi nofilologik OTM talabalariga tegishli bo‘lib, ularni nemis tili talabalariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tatbiq etish mumkin emas.

Manbalar tahlili asosida nemis tili talabalarining kasbiy yo‘naltirilgan o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha keyingi empirik tadqiqotlarda dastlabki diagnostikani amalga oshirish, talabalarni o‘qish tayyorgarligi bo‘yicha aniqlash va ularga murakkabligi turlicha bo‘lgan topshiriqlarni taklif etish metodik jihatdan tekshirilishi mumkin [5]. Bunda differensiallashtirishni faqat umumiy o‘zlashtirish ko‘rsatkichi bilan cheklamasdan, talabaning individual o‘rganish xususiyatlarini ham hisobga olish masalasi alohida e’tiborga loyiq. Akimova va Gudkova tadqiqoti aynan individual sur’at va idrok xususiyatlarining ahamiyatini ko‘rsatadi [1].

Shuningdek, Valtseva qarashlaridan kelib chiqib, differensial topshiriqlarning chet tili darsining turli bosqichlarida qo‘llanish imkoniyatlarini nemis tili ta’limi sharoitida alohida empirik tekshirish zarur.

Shunday qilib, mavjud ilmiy adabiyotlar kasbiy yo‘naltirilgan o‘qishda differensial topshiriqlarning metodik imkoniyatlari mavjudligini ko‘rsatadi, biroq nemis tili yo‘nalishi talabalari misolida uning samaradorligini isbotlash uchun alohida tajriba-sinov tadqiqoti talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Акимова М. Ю., Гудкова Л. В. Дифференцированный подход в обучении иностранному языку.
2. Никонова Е. Н., Яхьяева К. М. Дифференцированный подход при обучении студентов профессионально-ориентированному чтению в рамках дисциплины “Иностранный язык” // Вопросы методики преподавания в вузе. - 2020. - Т. 9. - № 35. - С. 62–73.
3. Вальцева Ю. В. Дифференцированный подход в обучении иностранному языку.
4. Schwerdtfeger I. C. Gruppenarbeit und innere Differenzierung (Fernstudieneinheit 29). – Berlin; München: Langenscheidt, 2001. – 192 S.
5. Ballweg S., Drumm S., Hufeisen B., Klippel J., Pilypaitytė L. Wie lernt man die Fremdsprache Deutsch? (Deutsch Lehren Lernen, Bd. 2). – Stuttgart: Ernst Klett Sprachen, 2013. – S. 67.

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI

Mas’ul muharrir: Ramzidin Ashurov
Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov
Musahhih: Alibek Zokirov
Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(3)

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali 26.09.2023-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.